

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING JAHON TAJRIBASI



Ollamov Yarash Yo'ldoshevich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlari nomzodi, dotsent



Radosteva Yuliya

Rossiya Federatsiyasi, V.F. Yakovlev nomidagi Ural davlat
yuridik instituti, yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning xorijiy davlatlar – AQSH, Germaniya, Daniya, Janubiy Koreya, Kuba, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Singapur, Fransiya, Xitoy, Shvetsiya, Hindiston, Skandinaviya mamlakatlari tajribasi yoritilgan hamda fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, korrupsiyaga qarshi kurashishning vertikal va gorizontaal strategiyasi, korrupsiya hodisasiga javob qaytarish modellari (variantlari) – oldini olish (ogohlantirish) va javob qaytarish, “mutlaq murosasizlik” siyosati, korrupsiyaning turlari – poraxo'rlik “oq yoqalilar” jinoyatchiligi, “kikbeking” (noqonuniy olingan pulning bir qismini bitim ishtirokchisiga to'lash), nayrang va boshqalar.

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация. В статье освещается опыт зарубежных стран – США, Германии, Дании, Южной Кореи, Кубы, России, Саудовской Аравии, Сингапура, Франции, Китая, Швеции, Индии, Скандинавии в борьбе с коррупцией, а также приводятся мнения и комментарии.

Ключевые слова: коррупция, взяточничество, вертикальная и горизонтальная стратегия борьбы против коррупции, модели (варианты) реагирования на коррупционные инциденты – профилактика (предупреждение) и реагирование, политика «непримиримости», виды коррупции – взяточничество, «беловоротничковая преступность», «кикбэкинг» (выплата части незаконно полученных денег участнику сделки), обманы и другие.

WORLD EXPERIENCE OF FIGHTING CORRUPTION

Abstract. The article describes the experience of foreign countries – the USA, Germany, Denmark, South Korea, Cuba, Russia, Saudi Arabia, Singapore, France, China, Sweden, India, Scandinavia – in fighting corruption, as well as opinions and comments.

Keywords: corruption, bribery, vertical and horizontal strategy of combating corruption, models (options) of response to corruption incidents – prevention (prevention) and response, «non-reciprocity» policy, forms of corruption – bribery, «revolutionary crime», «kickbacking» (payment is often illegally obtained as part of a share transaction), fraud and second.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: "Bashariyat tarixiga nazar solsak, korrupsiya illati hatto eng qudratli va eng kuchli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelganiga va to'liq parokanda qilganiga guvoh bo'lamiz.

Korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to'sqinlik qiladigan, xatarli tahdiddir va u barqaror rivojlantirish maqsadlariga erishish borasidagi rejalimizga ham jiddiy putur yetkazadi.

Tahlillarga ko'ra, hozirda korrupsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion AQSH dollariga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda. Ammo, men bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko'rilayotgan real zararining aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi, deb hisoblayman. Eng yomoni – jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'lamini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi" [1], deb korrupsiyaning bugungi holatiga aniq baho beradi.

Ko'plab tadqiqotchilar, masalan, R.Xakimov [2], Sh.Qobilov [3], M.M. Polyakov [4], V.A. Ribnikov [5], V.V. Moiseyev [6] va boshqa olimlar bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish muammosi har doimgidan ham dolzarb ekanligini, chunki ushbu holat siyosiy tizimning barqarorlashuvida o'ta xavfli salbiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydilar.

Ushbu muammo bo'yicha so'nggi adabiyotlar tahlili asosida, ilmiy hamjamiyatda hozirgi bosqichda korrupsiya muammosi turli ko'rinishlarda o'rganilmoqda, deb xulosa qilish mumkin. Biroq, tadqiqotlarda asosiy e'tibor dunyoning turli mamlakatlaridagi korrupsiya dinamikasiga, ya'ni ushbu hodisaning protsessual jihatiga qaratilmoqda. Xususan, korrupsiya va uning oqibatlarini tizimli tushunish mavjud emasligi R.Jeyms [7], V.V. Moiseyev [8] va V.A. Ribnikov [9] tomonidan ko'rsatib o'tilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining o'ziga xos xususiyat-

larini aniqlashga yordam beradigan tizimli va institutsional yondashuvlarni tahlil qilish va shu asosda korrupsiyaga qarshi faoliyat modellari tasnifini ishlab chiqish hamda takliflar berish dolzarb hisoblanadi. Ushbu institutsional munosabatlar va siyosiy tizimni beqarorlashtirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan korrupsiyaga qarshi kurashdagi xalqaro tajriba tahlili dolzarb hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi davlat darajasida olib boriladigan amaliy usullar va chora-tadbirlar asosida kurashishning ikki asosiy strategiyasini ajratib ko'rsatish mumkin: vertikal va gorizontal. Birinchi strategiya, tezkor natijadorligi bilan ajralib turadi. Ikkinchisi, korrupsiyaga qarshi rag'batlarni rivojlantirishga asoslangan davlat tomonidan ilgari lab, olg'a borish siyosatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Bu strategiyalar muayyan davlatlar misolida, masalan, Singapur, Xitoy, Kuba va Shvetsiyada, Skandinaviya mamlakatlarida esa mos ravishda amalga oshirilmoqda. Korrupsiya hodisasiga javob qaytarish modeliga ko'ra, davlat organlari tomonidan amalda qo'llanish uchun ikki variant mavjud: oldini oluvchi (ogohlantiruvchi) va javob qaytarish. Ikkinchisi, afsuski, kerakli natija bermasdan, asrlar davomida Rossiya siyosiy amaliyotida namoyish etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning Skandinaviya modeliga ko'ra, hokimiyatning ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi tarmoqlari darajasida yuqori axloqiy me'yorlar belgilanib, ularga korrupsiyaga qarshi turli imtiyozlar – soliqlar, subsidiyalar va hokazolar orqali erishiladi. Xususan, Skandinaviya modelida siyosiy jarayonning shaffofligiga alohida e'tibor berilgan, ya'ni davlat ichki idora hujjatlariga kirish yo'lini ochib beradi, albatta, harbiy sirlar bundan mustasno, shuningdek, jamiyatda qonuniy bo'lgan odil sudlovning samarali tizimini yaratadi.

Ayniqsa shu jihat ahamiyatliki, sud tizimida jamoatchilik ishonchisiz sud jamoasi xodimlari orasidagi korrupsiyaning oldini olish mumkin emas. Samarali boshqaruv, Skandinaviya modelida boshqaruv tizimidagi byurokratik tartiblar va

siyosiy to'siqlarni mumkin qadar kamaytirishga asoslangan. Siyosiy elitani ishga olish tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ochiq va erkin amalga oshiriladi. Bu esa siyosiy jarayondagi umumiy ziddiyatni mumkin qadar kamaytirish bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat tuzilmalari o'rtasida o'zaro kelishuvga erishish imkonini beradi. Institutsional nuqtai nazardan, Skandinaviya modelida fuqarolik jamiyati instituti alohida rol o'ynaydi, unga davlat siyosiy qarorlarni amalga oshirish bosqichida jamoatchilik nazorati uchun to'laonli sharoit yaratadi. Skandinaviya modelidagi davlat apparati xodimlarining moddiy ta'minoti professional ishchining daromadidan o'rtacha ikki barobardan oshmaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda, moddiy jihatidan, Buyuk Britaniya tajribasi qiziqarlidir, chunki bu mamlakatda parlamentda ishlash "ijtimoiy foydali faoliyat" bilan tenglashtiriladi va siyosiy partiyaga a'zo bo'lish uchun mulkiy shart mavjud bo'ladi. Ushbu strategiya Skandinaviya modeli doirasida ham amalga oshiriladi va bunday holatda korrupsiyaga qarshi rag'bat imtiyozlardan ustun turadi. Skandinaviya modelining korrupsiyaga qarshi kurashishda qo'llanilishi tufayli Shvetsiya hozirgi vaqtda dunyodagi eng past darajada korrupsiyalashgan davlat apparatiga ega.

Shu bilan birga, Skandinaviya modeli doirasida korrupsiyaga qarshi kurashishning o'ziga xos usullarida farqlar mavjud. Masalan, Daniyada poraxo'rlikka "mutlaq murosasizlik" siyosati tizim darajasida amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, biznes tuzilmalari darajasida tashkilotlarning nizomlarida korrupsiyaga qarshi qoidalar mavjud bo'lib, ular Daniya xalqaro rivojlanish agentligi tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu qoidalarga rioya qilmaydigan kompaniyalar 5 yil davomida hukumat shartnomalarini tuzishga yo'l qo'ymaydigan maxsus "qora ro'yxat"ga kiritilguncha bo'lgan davlat buyurtmalarida ishtirok etmasdan qolish xavfini tug'diradi. Bunday choralar "yumshoq kuch" tizimi siyosati va tashqi siyosat maydonida Daniya davlat diplomatiyasi strategiyasining bir qismi bo'lgan Daniya biznes tuzil-

malarining tashqi siyosat maydonida ijobiy imijini ta'minlashga mo'ljallangan. Soliqqa tortish ustidan qattiq nazorat o'rnatilganligi, Daniyadagi soliqlarni to'lamaslik amaliy jihatdan deyarli mumkin emasligini anglatadi. Daniyada fuqarolik jamiyati institutlari faolligi yuqori darajada ekanligi, siyosiy jarayonning shaffofligi hamda davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimi mavjudligi korrupsiyaning maqbul past darajada saqlanib qolishiga olib kelmoqda. Finlyandiyada, shuningdek, siyosiy qarorlarni amalga oshirish darajasida boshqaruv tartiblari-ning shaffofligi, qonuniylik va boshqaruvning turli darajada mansabdor shaxslar o'rtasidagi axloqiy standartlar tamoyili korrupsiyaga qarshi kurashishda asosiy prinsiplardan hisoblanadi [10]. Siyosiy jihatdan mustaqil ommaviy axborot vositalari, fuqarolik tashabbusi va huquq-tartibot organlariga ko'maklashuvchi shaxslarga nisbatan ular xavfsizligining davlat tomonidan kafolatlanishi ham mamlakatdagi korrupsiya darajasini pasaytirishda qo'shimcha omil bo'lmoqda. Skandinaviya modelida korrupsiyaga qarshi kurashish choralari-ning samaradorligi uchun ma'muriy apparatning qarorlar qabul qilish jarayonida eng yuqori darajadagi ochiq-liqu, davlatning iqtisodiyot sohasiga mumkin qadar kam aralashuvi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan korrupsiyaning kamayishi mansabdor shaxslarning iqtisodiy sektorga ta'sir ko'rsatishdagi imkoniyatlarining cheklanganligi, turli ma'muriy mexanizmlar orqali biznes muhitiga nisbatan bosim o'tkazmasligi bilan bevosita bog'liq.

Skandinaviya modelida biznes manfaatlarining lobbisi norasmiy amaliyotlar orqali emas, balki parlament darajasiga olib chiqilib, bu masalalarni rasmiy tartib-qoidalar doirasida hal qilish imkonini beradi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan qarorlar qabul qilish jarayonining mansabdor shaxslar tomonidan bunday rasmiylashtirilishi uning shaffofligining kafolati bo'lib, korrupsiyaga qarshi kuchli rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Skandinaviya modelining yana bir o'ziga xos xususiyati – ma'muriy tizimning samarali tashkil etilishi, xususan, uning ixchamligi,

byurokratlashtirish darajasining kamligi, mansablar taqsimlanishida urug'-aymoqlik prinsipi ning mavjud emasligi va boshqalarda ifodalanadi.

Mansabdor shaxslar faoliyati ustidan, masalan, parlament va fuqarolik jamiyati tomonidan yetarli darajada ichki va tashqi nazorat tizimi o'rnatilganligi ham umumdavlat, ham ichki darajadagi korrupsiya ko'rinishlarining oldini olish imkonini beradi. Yuqoridagilar asosida aytish mumkin ki, Skandinaviya modelida korrupsiya ko'rinishlariga ta'sirlanish strategiyasi, avvalo, oldini olish usuli, profilaktikadan keng foydalanadi.

Qat'iy vertikal xarakterdagi nazorat modeli, aslida, korrupsiyaga qarshi kurashishning reaktiv usuli bo'yicha quriladi. Misol uchun, Singapurda korrupsiyaga qarshi choralar izchil va tizimli bo'lib, taqiqlovchi va nazorat qiluvchi mexanizmlarga asoslangan. Davlatda korrupsiyani kamaytirish maqsadida 1990-yillardan boshlab, xususan, mansabdor shaxslar faoliyatini qat'iy tartibga solishda, byurokratik tartiblarni tubdan soddalashtirishda, shuningdek, axloqiy me'yorlarga rioya etilishini qat'iy nazorat qilishda o'z ifodasini topgan vertikal chora-tadbirlar tizimi tashkil etildi [11].

Korrupsiyaga qarshi kurashishda bunday yondashuv institutsional nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati va uning tashabbuslariga emas, balki yangi davlat tuzilmalari tuzish va maxsus idoralar tashkil etishga ustuvorlik beriladi. Xususan, Singapur, Xitoy va Kubada ma'muriy apparat ish faoliyati nazorati tegishli korruptsiya to'g'risidagi ishlarni tergov qilish byurosi, korrupsiya holatlarini tergov qilish bo'yicha maxsus komissiya va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Oliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi. Korrupsiyaga oid ishlarni tergov qilishga ixtisoslashgan yangi muassasalarni yaratish bilan bir vaqtda, ushbu model uchun korrupsiyaga qarshi kurashishda amaldagi qonunchilikda talabchanlikni tobora oshirib borishni rejalashtirish, sudyalik o'rinlariga va imtiyozli maqomga yuqori haq to'lash bilan ajralib turadigan sud tizimining mustaqilligi kafolatlarini oshirish kabilar xarakterlidir. Poraxo'rlik uchun qattiq iqtisodiy

sanksiyalar ham qo'llaniladi. Shuning uchun ham aynan Singapur modelidan mansabdor shaxslarning ish haqlarini oshirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali korrupsiyaning oldini olish vositasi sifatida foydalaniladi.

Xitoy Xalq Respublikasida hukumat amaldorlari poraxo'rlik jinoyatlari uchun, odatda, o'lim jazosi bilan yuzma-yuz kelishadi. Lekin ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, yuqoridagi chora-tadbirlarning barchasi haqiqatda faqat pora olish xavfini oshiradi, binobarin, amaldorlarning muayyan xizmatlari uchun "narx"lar o'z-o'zidan ko'payadi. Shu bilan birga, qaror qabul qilish jarayoni shaffof emas, iloji boricha yopiq bo'lib qolmoqda, bu esa institutsional darajadagi korrupsion amaldorlarga siyosiy tizimda juda yuqori lavozimlarni saqlab qolish imkonini beradi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan korrupsiyaga qarshi kurashishning yana bir modeli sifatida G'arbiy Yevropa modelini keltirish mumkin. Misol uchun, Germaniyada korrupsiyaga qarshi mexanizm davlat g'aznasi va korrupsiyaning qat'iy reyestrini yuritish, tadbirkorlikning yuqori etika normalari orqali korrupsiyaga qarshi rag'batlantirishlarni yaratish, tadbirkorlar ishiga aralashib homiylik qilgani uchun ishdan bo'shatilgan shaxslarni 5 yil davomida biznes tuzilmalarda ishtirok etishini taqiqlash prinsiplariga asoslanadi. Bundan tashqari, G'arbiy Yevropa modeli milliy qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etish taktikasini faol ravishda amalga oshiradi. Mansabdor shaxslarning telefon suhbatlari ustidan sanksiyalangan nazorat o'rnatilgan va fuqarolarning murojaatlari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish markazlari yordamida jinoyatchilarni ta'qib qilish joriy qilingan [12]. Masalan, Germaniyada politsiya xodimlariga yoki yo'l-patrul xizmati xodimlariga pora to'lash deyarli mumkin emas. Bunday xatti-harakat uchun aybdor shaxs darhol hibsga olinadi va jarimaga tortiladi.

G'arbiy Yevropa modelida davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan tizimli hamkorligi katta ahamiyatga ega. Jamiyat va davlat o'rtasida bunday muloqot korrupsiya bilan

bog'liq muammolar bo'yicha institutsional darajada "ishonch telefonlari" va fuqarolarning yuqori darajadagi ishonchiga ega bo'lgan sud tizimini yaratish orqali amalga oshiriladi. Xususan, Germaniyada "Boshqaruvning federal organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida federal hukumatning direktivasi" mavjud, unda taftish va tekshirishlar sharoitida amalga oshiriladigan ichki idoraviy nazorat kuchaytirilgan, korrupsiyaga moyil bo'lishi mumkin bo'lgan mansablarga tayinlov qoidalari aniq belgilangan va ro'yxati keltirilgan.

Direktivada, shuningdek, korrupsion amaliyotlarni demotivatsiya qilish uchun xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish parametrlari ham ko'rsatilgan [13]. Ayniqsa, davlat buyurtmalarini taqsimlash sohasida byurokratik apparat faoliyati ustidan davlat tomonidan qattiq nazorat o'rnatilishi, protsessual jihatlariga qat'iy rioya qilish, davlat buyurtmalarini rejalashtirish va rasmiylashtirish bosqichlarida hamda vakolatlarni taqsimlashda mansabdor shaxslarning qarorlarini mumkin qadar shaffofligi darajasini va bajari-ladigan ish tartiblari jihatlarini qayd etib o'tish joiz. Ushbu qoidalarni buzuvchilar qayta tiklash huquqisiz kimoshdi savdosidan chiqariladi. Shunday qilib, G'arbiy Yevropa modeli korrupsiyaga qarshi kurashish uchun profilaktik va tezkor choralarni o'z ichiga oladi.

Korrupsiya holatlariga javob berish usullariga ko'ra an'anaviy jamiyatlar modelini ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bu modelning xususiyatlari, ayniqsa, Saudiya Arabistoni va Hindistonda yaqqol namoyon bo'ladi [14]. Jumladan, Hindiston siyosiy amaliyotida poraxo'r mansabdor shaxslarning jinoyatlari e'lon qilinishi va fuqarolarning poraxo'rlikka qarshi norozilik namoyishlari usullari keng tarqalganligi bilan ajralib turadi.

Saudiya Arabistoni 2007-yildan buyon "Milliy korrupsiyaga qarshi strategiya" nomli hujjat amal qiladi. Bu juda ko'p rejali hujjat bo'lib, qonun chiqaruvchi shariat qonunlariga muvofiq korrupsiyani maxsus belgilagan. Shu munosabat bilan hujjatda korrupsiya milliy davlat manfaatlariga, shuningdek, mamlakatning umumiy ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanishiga bevosita zarar yetkazuvchi hodisa sifatida e'tirof etiladi. Bunday yondashuv mansabdor shaxslar ongiga korrupsiya siyosiy tizimning o'ziga beqarorlikni keltirib chiqaradigan, ya'ni siyosiy tizimga qarshi omil sifatidagi g'oyani kiritish nuqtai nazaridan juda ahamiyatlidir. Mamlakatda institutsional darajada hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi muloqot instituti sifatida baholanishi mumkin bo'lgan Milliy korrupsiyaga qarshi komissiya faoliyat ko'rsatadi. Uning ish faoliyatida jamoat tashkilotlari, ekspertlar jamiyati a'zolari, ilmiy uyushmalar, advokatlar guruhlar vakillari, shuningdek, savdo-sanoat tuzilmalari rahbariyati ishtirok etadi. Bunday maydon institutsional darajada korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik ishtiroki uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Saudiya Arabistoni davlat o'zining korrupsiyaga qarshi faoliyatida, shuningdek diniy obro'ga, oilaviy qadriyatlarga hamda yosh avlod tarbiyasida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi g'oyalarga ham tayanadi. Saudiya Arabistoni Milliy korrupsiyaga qarshi komissiya kam daromadli odamlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi, davlat va xususiy sohalarda yangi ish o'rinlari yaratadi, shuningdek, migratsiya ishchi kuchiga qarama-qarshi o'laroq, o'zining yuqori malakali milliy kadrlari bandligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, komissiya korrupsiyaga qarshi kurashni boshqa davlatlarning huquq-tartibot idoralari bilan muvofiqlashtirish vakolatiga ega [8; 415-b.].

"...Amerika qonunchiligida korrupsiya, uning mohiyati, mazmuni, xususiyatlari va turlarini ifodalovchi tushunchaning ta'rifi ishlab chiqilgan, korrupsiyaning har xil turlari – poraxo'rlik "oq yoqalilar" jinoyatchiligi, "kikbeking" (noqonuniy olingan pulning bir qismini bitim ishtirokchisiga to'lash), nayrang va boshqalar uchun poraning 3 baravari miqdorida jarima yoki 15 yilgacha qamoq jazosi yoxud ikkovi birgalikda nazarda tutilgan, javobgarlikni og'irlashtiruvchi hollarda esa 20 yil mud-datgacha qamoq jazosi belgilangan" [3; 244-b.].

AQSHda huquqbuzarliklarni nazorat qilishning izchil tizimi yaratilgan. Masalan, AQSH Kongressi Senati va Vakillar palatasining qo'mi-

talari, hukumatda esa axloq bo'yicha qo'mita faoliyat ko'rsatadi. Hukumatning huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo'yicha asosiy muvofiq-lashtiruvchi idorasi Adliya vazirligi hisoblanadi. Uning Kongress bilan korrupsiyaga qarshi kurash masalalaridagi o'zaro munosabatlari ancha keskin xususiyatga ega. Korrupsiyaga qarshi kurashda jinoiy va siyosiy qidiruvning yetakchi organi bo'lgan federal tergov byurosi alohida o'rin tutadi. Korrupsiyaning oldini olish va jinoyat-chilarni jazolash tadbirlarida prokuratura, Penta-gonning maxsus xizmatlari, politsiya, sud ham ishtirok etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda qonun-chilik, ijroiya va sud hokimiyatlari o'rtasida majbu-riyatlar, huquqlar va funksiyalar qat'iy taqsimlan-gan. Kongress tegishli qonunlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi. Uning ikkala palatasi davlat xara-jatlariga, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashga byudjet mablag'larini ajratish yoki cheklash orqali ma'muriyat siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Kongress huquqbuzarliklarni nazorat qilish faoliyatini o'z palatalarining doimiy va maxsus qo'mitalari orqali amalga oshiradi. Korrupsiya muammolari bilan, asosan, Senatning axloq bo'yicha maxsus qo'-mitasi hamda Vakillar palatasining Mansabdor shaxslarning xizmat harakatlari standartlari bo'yicha qo'mita shug'ullanadi. Korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarga oid ishlar Hukumat operatsiyalari bo'yicha qo'mitalarda pochta ido-rasi va fuqarolik xizmati, fan, koinot va texnika, daromad va xarajatlar ishlari tinglanadi.

Qo'mitalar federal vazirlik va idoralar bilan aloqada bo'ladilar, hukumat organlarining faoliyati bo'yicha ishlarni tinglaydilar va tergov qiladilar. Ba'zi korrupsiyaga oid ishlar ikkala palataning Soliqqa tortish va iqtisodiy masalalar bo'yicha qo'mitalarining qo'shma majlisida eshitiladi.

Adliya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurash bilan kriminal boshqarma shug'ullanadi. U jinoyat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qiladi, uyushgan jinoyatchilikning legal biznesga va kasaba uyushmalariga qo'shimcha daromad olish va taqiqlangan faoliyatni niqoblash uchun kirib

borishni qayd etadi. Aniqlanishicha, "AQSHda XX asrning 80 yillarida uyushgan jinoyatchilikdan olingan har yillik daromadlar 160 mlrd. AQSH dollaridan oshgan" [3; 248-b.].

1989-yilda AQSH Kongressi mansabdor shaxslar xulqini tartibga soluvchi qoidalarga ba'zi o'zgartishlar kiritgan qonunni qabul qildi va axloq haqidagi qonunning federal hokimiyatning barcha tarmoqlariga – qonunchilik, ijroiya va sud hoki-miyatiga tatbiq etdi. Shuningdek, axloq qoida-lariga rioya etilishini nazorat qiluvchi maxsus idoralar tashkil etildi.

Nazorat quyidagicha tashkil etilgan:

a) Kongress Vakillar palatasi apparatining a'zolari va xodimlarini nazorat qilish – AQSH Kongressi Vakillar palatasining Rasmiy xatti-harakat standartlari bo'yicha qo'mitasiga;

b) senatorlar va Senat xodimlarini nazorat qilish – AQSH Senatining Axloq-odob bo'yicha qo'mitasiga;

v) federal sudyalari va sudlar apparatlari xodimlarini nazorat qilish – AQSH sudlari ma'-muriy boshqarmasiga;

g) ijroiya hokimiyati organlarining mansabdor shaxslarini nazorat qilish – hukumatning Axloq-odob bo'yicha boshqarmasiga [3; 250-b.].

Ijroiya hokimiyati organlari xodimlari uchun Hukumat xizmatining axloq-odob kodeksi mavjud bo'lib, uning qoidalarini AQSH davlat kotibi mamlakat prezidenti nomidan belgilashi mumkin.

Ijroiya hokimiyati tizimiga kiruvchi har bir idora maxsus tayinlanadigan xodimga ega bo'lib, u idora ichidagi mansabdor shaxslarning axloq-odob qoidalariga rioya etishlarini muvofiqlash-tiradi va nazorat qiladi hamda ushbu idoraning AQSH Nazorat-moliya bosh boshqarmasi va hukumat qoshidagi Axloq-odob boshqarmasi bilan ish yuzasidan aloqasini amalga oshiradi.

Hukumat qoshidagi Axloq-odob boshqar-masining o'zi esa idoralardagi vakillariga rahbarlik qiladi, mansabdor shaxslar yo'l qo'ygan axloq standartlari buzilishlarini kvalifikatsiyalashda yuzaga keladigan muammolarni hal qiladi, eng "nozik" vaziyatlarni ko'rib chiqadi hamda muayyan hollarda jinoiy javobgarlikni qo'llash haqidagi

masalani hal qiladi.

Fransiyada hukumatning barcha a'zolari, martabasi qandayligidan qat'i nazar, bosh vazir, davlat vaziri, delegat vazir, davlat kotibi – barchalariga kiritiladigan alohida mavqeli maqom mavjud. Fransiya konstitutsiyasiga ko'ra, vazirlar ushbu lavozimlarni deputatlik yoki senatorlik mandati va jamoat yoki xususiy sektordagi har qanday boshqa kasbiy faoliyat bilan qo'shib olib borishi taqiqlangan.

Iste'foga chiqqanlaridan keyin 6 oy mobaynida vazirlar kasaba uyushmalari va tadbirkorlar uyushmalarida, iqtisodiyotdagi davlat sektorlaridagi kompaniyalarda, shuningdek, davlat bilan birga ish yurituvchi xususiy kompaniyalarda (masalan, ko'chmas mulk savdosi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, qurilish firmalari kabilarda) rahbarlik lavozimlarini egallash huquqiga ega bo'lmaydilar [3; 254-b.].

Germaniyada korrupsiyaga qarshi qonunlar yordamida kurash olib borish federatsiya darajasida Bundestag tomonidan – jinoiy-huquqiy va boshqa hujjatlarni qabul qilish orqali hamda o'lkalar darajasida Landtaglar tomonidan – xizmatga oid huquqiy hujjatlarni qabul qilish orqali olib boriladi.

Ijroiya hokimiyati sohasida federatsiya darajasida – Federal ichki ishlar vazirligi va boshqa organlar tomonidan (oldini olish funksiyalari), shuningdek, jinoiy ta'qib sohasida Federal Adliya vazirligi tomonidan (ta'qib etish funksiyalari), o'lkalar darajasida – tegishli o'lka vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat va munitsipal xizmatlar tizimida korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga chek qo'yish bilan, asosan, o'lkalar politsiyasi, prokurorlar, ichki tergov organlari, hisob va taftish organlari shug'ullanadilar.

Germaniyada barcha davlat va munitsipal hokimiyat organlarida tekshirishlar o'tkazish uchun maxsus bo'linma (ichki taftish xizmati) tashkil qilingan. Uning maqsadi hokimiyat organlaridagi korrupsiyaning oldini olish va tarqalish darajasini mumkin qadar pasaytirish hisoblanadi.

“Ichki taftish bosh xizmati o'tkazadigan

tekshiruvlarning yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

xizmatchilar mehnatini tashkil qilishda mavjud bo'lgan korrupsiya uchun xavfli joylarni tahlil qilish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risidagi nizomlarini qayta tekshirish;

korrupsiya haqida kelib tushgan xat-xabarlarini tekshirish;

boshqaruvning boshqa tarmoqlari har yili taqdim etadigan hisobotlarni baholash;

umumfederal miqyosdagi korrupsiyaga qarshi tadbirlarni kelishib olish;

ichki taftishlarni professional darajada nazorat qilish (rahbariy yo'nalishlarni, tekshiruv dasturlarini belgilash), ish yakunlarini chiqarish (tekshiruvlarni baholash, maslahatlar tashkil qilish, ishlarni muvofiqlashtirish);

korrupsiyaga qarshi kurashni strategik rejalashtirish;

korrupsiyaga qarshi yana boshqa tadbirlar (masalan, hokimiyat organlarining korrupsiyaga berilish holatlari haqida obzorlar berish) [3; 256-b.].

O'rta nazorat bo'g'ini ichki taftish xizmati hisoblanadi. Ichki taftish xizmati okrug hukumatlarining barcha bo'limlarida taftish o'tkazadi, shuningdek, unga bo'ysunuvchi tuzilmalarda va kommunal boshqarmalarda tekshiruvlar o'tkazadi.

Singapurda korrupsiyaga qarshi kurashda rahbarlik bevosita siyosiy rahbarlar va mansabdor shaxslarning o'zlari tomonidan amalga oshirildi va bu keng jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashga ixtisoslashgan organ korrupsiya hodisalarini tergov qilish byurosi hisoblanadi. Bu organ korrupsiya bilan bog'liq ishlarni tergov qiladi hamda Singapur iqtisodiyotining davlat va xususiy sektorida uning oldini olish chora-tadbirlarini ko'radi. Byuroga davlat xizmatida halollik va sotilmaslik prinsipi amal qilishi, xususiy sektorda korrupsiya aralashgan bitimlar tuzilganligi uchun javobgarlik yuklatilgan. Shuningdek, uning vazifalari qatoriga davlat mansabdor shaxslarining o'z vazifalarini suiiste'mol qilish holatlarini tekshirish va shunday

holatlar aniqlanganda, tegishli organlarni intizomiy javobgarlikka tortish haqida ma'lumotlar berish vazifalari ham kiradi. Byuro davlat organlarining korrupsiyalashish sabablarini va korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan davlat xizmatining zaif tomonlarini ham o'rganadi.

Xitoyda hashamatlilik kabi zararli illat korrupsiyaning ifodasi sifatida baholanadi. Xitoyda "2016–2018-yillar mobaynida 1.3 million nafar davlat xizmatchisi intizomiy va ma'muriy jazoga tortildi, 35.5 ming amaldorga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi, vazir maqomida bo'lgan 280 nafar, vazir o'rinbosari yoki departament rahbari maqomidagi 8.600 nafar mansabdor shaxslar javobgarlikka tortildi. Keyingi besh yilda chet elga qochib ketgan 3.317 nafar korrupsiyachi olib kelinib, qonuniy jazoga tortildi" [3; 261-b.].

Janubiy Koreyada 1999-yildan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus elektron "OPEN" dasturi ishlab chiqildi va fuqarolarga davlat xizmatchilari ishini nazorat qilib turish imkoniyati yaratildi. Fuqarolar xohlagan zahoti o'z hujjatlarining davlat muassasalari tomonidan ko'rib chiqilishini Internet orqali kuzatib turishi mumkin. Bu esa ularga korrupsiya holatlari sezilgan paytlarda o'z noroziliklarini bildirishga imkon yaratdi. Korrupsiyaga qarshi "OPEN" dasturi hokimiyat organlarining faoliyati, fuqarolar va davlat manfaatlariga halol xizmat qilishda o'ziga xos andaza bo'ldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda Rossiya amaliyoti yuqorida sanab o'tilgan barcha modelardan farq qiladi. Mamlakat qator xalqaro shartnomalarga qo'shilgach, 2000-yildan keyin korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikda faol ishtirok eta boshladi. Misol uchun, Rossiya 2006-yilda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan, uning noqonuniy boyish normalari kiritilgan 20-moddasi bundan mustasno. Shuni qayd etib o'tish joizki, aynan ushbu sohada mansabdor shaxslar orasida korrupsiya faolligi kuzatilgan. 2008-yil may oyida Rossiyada Milliy korrupsiyaga qarshi kurash rejasi tasdiqlandi va 2008-yil 25-dekabrda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi FQ-273-son qonun

qabul qilindi. 2012-yil dekabr oyida "Davlat lavozimlarini egallab turgan shaxslar va boshqa shaxslarning o'z daromadlariga bo'lgan xarajatlarning mos kelishini nazorat qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, Rossiya Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo bo'lganidan so'ng, qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun yuqori darajadagi xalqaro hamkorlikni nazarda tutadigan [15] hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi choralari belgilandi.

Rossiyada korrupsiyaga imkoniyat tug'diruvchi omillarga, asosan, quyidagilar kiradi:

amaldagi qonun normalarini mansabdor shaxslar va qonun chiqaruvchi tomonidan rasmiy huquq normalarining bajarilmasligi;

fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o'rtasida o'zaro muloqotning yo'qligi, buning oqibatida esa mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning imkoniyati mavjud emasligi;

siyosiy elitani xizmatga olishning yopiq tipligi, mahalliy darajadagi hokimiyat organlarida urug'-aymoqchilikning mavjudligi;

biznes va katta mulk mansabdor shaxsning o'ziga emas, balki uning qarindoshlari nomiga rasmiylashtirilganligi uchun amaldagi qonunchilikni chetlab o'tib mansabdor shaxslar va biznes tuzilmalari o'rtasida doimiy aloqa o'rnatilganligi;

jinoyat sodir etgan korrupsionerlarning davlat apparati tuzilmalarida va boshqa idoralarda o'z ishini davom ettirayotgan holatlarning mavjudligi va boshqalar.

Jahon miqyosida "bir kunlik" ochilib-yopiladigan firmalar, qalbaki bitimlar, restoranlar, kazinolar kabi biznesning offshor doiralarida pullarni o'zlashtirish kabi faol korrupsiya holatlari juda rivojlangan.

Ekspertlarning fikricha, AQSHda har yilda faqat sug'urta sohasidagi tovlamachilikdan (jinoiy biznesdan) yetkazilgan zarar 100 mlrd. dollarni tashkil qiladi.

Tenderlarda, bankrotlikda, yangi hududlarni o'zlashtirishda, harbiy kontrabandada legal biznesga kirish tenderlarda yashirin kapital bilan firmalar ishtirokida amalga oshiriladi [16].

Bundan tashqari, saylovlarda korrupsiya hamda partiya va jamoat namoyondalarini sotib olish keng ommalashgan. Bu yaqinda AQSH prezidentligiga o'tkazilgan saylovlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, "dunyoda keyingi 30 yilda jinoyatchilik 4-marta, shu jumladan, sobiq SSSR va AQSHda – 8-marta, Buyuk Britaniya va Shvetsiyada – 7-marta, Fransiya – 6-marta, Germaniyada – 4-marta o'sgan. BMTning ma'lumotlariga qaraganda, 2001-yilda planetada 450 mln. atrofida jinoyat sodir qilinganlik holatlari ro'yxatga olingan, ularning haqiqiy soni 3-marta ko'p bo'lishi mumkin. Har yilda transmilliy jinoiy uyushmalar noqonuniy 1 mln.dan ortiq nolegal migrantlarni olib ketadi, ushbu jinoiy faoliyatdan daromadlar 3,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. O'tgan asrning oxirida narkobiznes operatsiyalarining umumiy hajmi har yilda 500 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. Narkotik vositalarning noqonuniy aylanmasi natijasida 90 mlrd. atrofida AQSH dollari o'zlashtiriladi va legal investitsiyalar sifatida foydalaniladi. Xalqaro valyuta fondining baholashicha dunyoda har yilda noqonuniy yo'llar bilan olingan 600 mlrd. atrofida AQSH dollari o'zlashtirib ketiladi" [17].

Korrupsiya u mavjud bo'lgandan buyon har qanday davlatning muammosi hisoblanadi. Biroq, ayrim davlatlarda korrupsiya tabiiy hodisa sifatida qabul qilinadi. Masalan, qadimgi Hindistonda davlat daromadlarini amaldorlar tomonidan o'zlashtirishning 40 ta turi sanab o'tilgan.

Hozirgi sharoitda, O'zbekistonda korrupsiya ijtimoiy tahdid va davlatni samarali rivojlanishining jiddiy to'siqlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan amaliyotda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatgan xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini ko'rib chiqish zarur.

Finlyandiya, Daniya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Singapur, Shvetsiya, Kanada, Niderlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Avstraliya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Isroil, AQSH, Chili, Irlandiya, Germaniya va Yaponiyada davlat darajasida korrupsiyaga qarshi strategik dasturlar ishlab chiqilgan va ular ancha "toza" mamlakatlar

hisoblanadi.

Bunday davlatlarda korrupsiyaga qarshi tizim, xususan, quyidagi asosiy institutsional va protsessual chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

davlat va jamoat tashkilotlarida korrupsiya harakatlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nuqtalarni monitoring qilish tizimi;

korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo'lgan lavozimlarga odamlarni tanlab qo'yish tizimi;

korrupsiyaviy harakatlar uchun jazolar tizimi, asosiy chora sifatida davlat tashkilotlarida ishlashni taqiqlash va barcha ijtimoiy imtiyozlardan mahrum qilish;

mansabdor shaxsning ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan halol va samarali harakat qilishidan foyda ko'rishini ta'minlashga qaratilgan ijobiy xatti-harakatlarini rag'batlantirish tizimi.

Isroilda korrupsiyaga qarshi kurashda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan korrupsion harakatlar ustidan nafaqat davlat organlari, balki jamoat tashkilotlari ham amalga oshiradigan "monitoringning muayyan takrorlanishi" tizimi orqali ta'minlanadi. Bu tashkilotlar sodir bo'lishi mumkin korrupsion nuqtalarni tadqiq qiladi va ular aniqlangan hollarda tergov organlarini xabardor qiladi. Bundan tashqari, olingan ma'lumotlar keng jamoatchilikka yetkazilishi shart.

Yaponiyada, ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi, korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim yo'nalishlaridan biri kadrlar siyosati hisoblanadi. Yaponiya rasmiylariga munosib ish haqi kafolatlangan. Siyosatchilar va davlat xizmatchilarining axloqiy xatti-harakatlariga katta e'tibor qaratiladi. Bunga amaldagi "Davlat xizmatchilarining axloqi to'g'risida"gi qonun guvohlik beradi.

Shunday qilib, xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari turli kurash usullari va uslublaridan samarali foydalanish bilan ajralib turadi. Bunda, korrupsiyaning loaqal bir foizi bo'lishi mumkin bo'lgan bunday nuqtalarni yo'q qilishga urg'u beriladi.



Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqi / president/uz/uz/lists/view6934
2. Хакимов Р. Коррупция – глобальная проблема. – Т.: “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2006. – 252 с.
3. Qobilov Sh. Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari va oldini olish yo'llari. – Т.: O'zbekiston IIV Akademiyasi. 2019. – 368 b.
4. Polyakov M.M. Yevropeyskiy опыт борьбы с коррупцией органами исполнительной власти и прокуратуры // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. – 2013. – № 2. – С. 34–42.
5. Рыбников В.А. Система госзаказа в современной России: проблемы и перспективы // Власть. – 2015. – № 4. – С. 15–22.
6. Моисеев В.В. Борьба с коррупцией в России. – М.: “Директ-медиа”, – 2014. – 415 с.
7. James R. Anti-Corruption Measures in Public Sector: Experience of Other Countries. Final Report. Электронный ресурс. URL: <http://www.knab.gov.lv/uploads/eng/anticor-ruption-measures.pdf>.
8. Моисеев В.В. Борьба с коррупцией в России. – М.: “Директ-медиа”, – 2014. – 415 с.
9. Рыбников В.А. Система госзаказа в современной России: проблемы и перспективы // Власть. – 2015. – № 4. – С. 15–22.
10. Joutsen M., Keranen J. Corruption and the prevention of corruption in Finland. Электронный ресурс. URL: www.om.fi.
11. Сиротин А. Лечение заразной жадности: Борьба с коррупцией в Сингапуре. Антикоррупционная информационная база сайта «Суда нет». Электронный ресурс. URL: <http://center.sudanet.ru/?tag=сингапур>
12. Поляков М.М. Европейский опыт борьбы с коррупцией органами исполнительной власти и прокуратуры // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. – 2013. – № 2. – С. 34–42.
13. Номоконов В.А. Коррупция в мире и международная стратегия борьбы с ней. Владивосток: “Барометр”, – 2004. – 200 с.
14. Субх М.А. Об основных достижениях стран ССАГПЗ в сфере борьбы с коррупцией и nepotизмом Институт Ближнего Востока. Электронный ресурс. URL: <http://www.iimes.ru>
15. Путин о коррупции. Электронный ресурс. URL: http://www.stopcorruption.ru/item_432.htm 9.
16. Хакимов Р. Коррупция – глобальная проблема. – Т.: “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2006. – С. 196–197.
17. Лукашук И.М. Глобализация, государство, право. – М., 2000. – 174 с; Хакимов Р. Коррупция – глобальная проблема. – Т.: “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2006. – С. 197–198

